# SPAIN

## INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCE

# PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE



2024 YEAR

SPAIN, MADRID

ISOC
INTERNATIONAL SCIENTIFIC ONLINE CONFERENCES



# PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE

International scientific-online conference

Part 12

May 29th

COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS

MADRID 2024

| | |
|---|---|
| **Eshanqulov Utkir Jumanazarovich**<br>**Muminov Jaxongir Baxtiyor o`g`li**<br>**Rahimqulova Husnora Xolmo'min qizi**<br>**Xurramova Ruxshona Zokir qizi**<br>**Mamatmurodova Sevinch Mamadamin qizi**<br>*OROL BO'YI MINTAQASINING EKOLOGIK MUAMMOLARI VA UNING OQIBATLARI.* | 206 |
| **Султонов Асрор**<br>*ВИРТУАЛ ҚИМОР ЎЙИНЛАРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШГА ДОИР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА* | 210 |
| **Saidova Zulfizar Xudoyberdiyevna**<br>**Ibotova Maftuna**<br>**Ibragimov Ibrohim**<br>**Omonova Laylo Odiljon qizi**<br>*O'ZBEKISTON VA GERMANIYA URF-ODATLARINING O'ZIGA XOSLIGI* | 216 |
| **Saidova Zulfizar Xudoyberdiyevna**<br>**Safarova Jasmina**<br>**Rajabova Madina**<br>**Omonova Laylo Odiljon qizi**<br>*O'ZBEK VA NEMIS SIYOSIY ATAMALARNING O'ZIGA XOS LINGVISTIK XUSUSIYATLARI* | 221 |
| **Saidova Zulfizar Xudoyberdiyevna**<br>**Abduhoshimova Nargiza**<br>**Abdullayev Muhammadqodir**<br>**Omonova Laylo Odiljon qizi**<br>*ONLAYN O`RGANISHNING MUHIM ROLI VA O`ZIGA XOS JIHATLARI* | 227 |
| **Saidova Zulfizar Xudoyberdiyevna**<br>**Axtamova Ferangiz**<br>**Fazliddinova Sanobar**<br>**Omonova Laylo Odiljon qizi**<br>*O'ZBEKISTON VA GERMANIYA MILLIY KIYIMLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS-XUSUSIYATLARI* | 232 |
| **Saidova Zulfizar Xudoyberdiyevna**<br>**Fayzulloyeva Niginabonu**<br>**Usmonova Yulduz**<br>**Omonova Laylo Odiljon qizi**<br>*EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH* | 237 |
| **Saidova Zulfizar Khudoyberdievna**<br>**Nigora Mamayeva**<br>**Zulxumor Karamatova**<br>**Gavhar Otamurodova**<br>**Omonova Laylo**<br>*THE ROLE OF A FOREIGN LANGUAGE IN THE DEVELOPMENT OF ART* | 242 |
| **Saidova Zulfizar Khudoyberdievna**<br>**Kamilova Navbahor**<br>**Zikirov Samandar**<br>**Jumanazarova Marjonoy**<br>**Omonova Laylo Odiljon kizi**<br>*MOVIES ARE A MIRROR OF CULTURE* | 247 |
| **Saidova Zulfizar Xudoyberdiyevna**<br>**Muhammadova Mehrinoz**<br>**Oripova Muharram**<br>**Omonova Laylo Odiljon qizi**<br>*GERMANIYA VA ANGLIYA DAVLATI AN'ANALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI* | 253 |

# ONLAYN O`RGANISHNING MUHIM ROLI VA O`ZIGA XOS JIHATLARI

**Saidova Zulfizar Xudoyberdiyevna**
*Buxoro davlat universiteti f.f.f.n,(PhD) Ingliz tilshunosligi kafedrasi o'qituvchisi*
**Abduhoshimova Nargiza**
**Abdullayev Muhammadqodir**
*BuxDU, 3-kurs talabalari*
**Omonova Laylo Odiljon qizi**
*BuxDu, 11-6Ing 20 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola onlayn o`rganing muhim roli va o`ziga xos jihatlari- ni o'rganish va ularni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, qiziqarli yo`nalishlarini ochib beradi.*

**Kalit so'zlar:** *kamchiliklar, qiziqarli, repetitor, onlayn,srtess,paltforma.*

**Annotation:** *This article is aimed at studying and analyzing important roles and specific aspects of online learning, revealing interesting areas.*

**Keywords:** *disadvantages, interesting, tutor,online,srtess, paltforma.*

Yaqin vaqt ichida butun dunyo onlayn-ta'limni joriy etish muammosi bilan to'qnashdi. Koronavirus pandemiyasi sabab maktab o'quvchilaridan to universitet talabalarigacha masofaviy ta'lim olish yo`lga qo`yilgan edi. Buni kimdir xursandchilik bilan yana kimdir bo`lsa, tanqidiy nazar bilan qarshi oldi. To'g'ri, onlayn-ta'limning ba'zi kamchiliklari mavjud bo`lib, biroq hozir uning foydali tomonlari haqida gap yurita qolaylik.

Onlayn-kurslarni o`zingiz yoqtirgan yo`nalishga mutanosib tarzda tanlashingiz mumkin. Xohlagan joyda, istalgan vaqtda shug'ullana olasiz. Deyarli hamma ta'limiy onlayn-platformalar mobil qurilmalarda ishlaydi. O`ziga xos tarzda qulay kiyimda, bir finjon qahva bilan ma'ruza tinglay olasiz. Yo'lga vaqt sarflash zarur emas. Bunday qulaylik mayda narsalar va ortiqcha zo'riqishlardan asraydi. Shu tarzda ortgan vaqt va kuchingizni boshqa foydali va qiziqarli narsalarga sarflashingiz mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, onlayn-ta'lim dunyoning ko'pgina rivojlangan davlatlari ko'rsatkichlariga ko'ra an'anaviy ta'limdan sifat bosqichi borasida qolishmaydi. Amerika universitetlari o'qituvchilarining 77 foizi onlayn-ta'limni sifat jihatdan an'anaviy ta'lim bilan teng, ba'zida esa undan ustun deb hisoblashadi. Onlayn-kursning samaradorligi asosan tinglovchiga bog'liq: masofaviy ta'lim ko'proq intizom va shaxsiy nazorat talab qiladi.

Turli qulay vositalar: prezentatsiyalar, testlar, videolar, chat, ekran namoyishi va darsni qayta-qayta ko'ra olish imkoniyati ta'limning yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Onlayn ta'lim tashkilotchilari ma'ruza yoki mahorat-darslariga turli shaharlar va mamlakatlardan o'qituvchilar va professionallarni taklif qilishi mumkin. Bu esa ta'lim hamda diplom obro'si va sifatini oshiradi.

Onlayn-ta'lim vositalari darsni qiziqarli qilishga yordam beradi. Ayniqsa, aniq fanlar uchun qo'llash qulay. Interaktiv mashg'ulotlar, o'yin usuli, yutuqlar va musobaqalar o'quvchilarni ta'lim jarayoniga sho'ng'ishiga olib keladi. Bundan tashqari, onlayn-

darslardagi muloqot u qadar rasmiy emas, oʻquvchi oʻzini qulay his qiladi va kamroq stress his qiladi, bu ayniqsa, testlar va nazorat ishlarida muhim. Ota-onalarning hammasi farzandini oʻqitishni xohlaydi, biroq har kim ham obroʻli maktabga yuborolmaydi yoki xususiy darslar uchun toʻlov qilolmaydi. Guruhiy onlayn mashgʻulotlar qimmat repetitor xizmatlari oʻrnini bosishi mumkin.

Onlayn-ta'lim har kimga oʻqish imkonini beradi. Ba'zilar kasallik, xizmat safarlari, tugʻruq yoki uyining cheka joydaligi, jismoniy nuqsonlari tufayli maktab, universitet va kurslarga qatnay olmasligi mumkin. Bunday hollarda internet orqali ham yaxshi ta'lim olish, yangi kasbni va zarur koʻnikmalarni egallash mumkin.

Yaxshi ta'limiy platformalar butun dunyo boʻylab millionlab oʻquvchilarni oʻqitish imkonini beradi. Sinfda joy qolmagani haqida umuman gap boʻlmaydi. Bitta guruh shakllangan boʻlsa ham, yangisini topish muammo emas. Irqi, dini, jinsi, millati, yoshi, kiyinishi, tashqi koʻrinishiga koʻra talabalar oʻrtasida diskriminizatsiyaning mavjud emasligi masofaviy ta'limning yana bir afzalliklaridan biridir. Hamma ishtirokchilar teng qatnasha oladi. Juda koʻp gapiradigan, boshqalarga soʻz bermaydigan talaba boʻlmaydi. Ayniqsa, introvertlar va materialni tushunishga koʻp vaqt sarflaydigan oʻquvchilarga onlayn darslar juda ma'qul keladi.

2021 yil yanvar oyida Xalq ta'limi vazirligi maxsus bayonotida masofaviy ta'lim jarayonida aksariyat oʻquvchilar vaqtini besamar oʻtkazganini ma'lum qildi. Shu sababli 2020-2021 oʻquv yilining 3 choragidan boshlab darslar toʻliq an'anaviy shaklda oʻtila boshlandi.

Bundan tashqari, oʻquv muassasalari ijtimoiy himoyalashning oʻziga xos mexanizmi hisoblanadi. Pandemiya buni yana bir bor isbotladi. Masalan, maktablar yopilguniga qadar butun dunyo boʻylab 300 milliondan ortiq oʻquvchi bepul tushlikdan foydalangan. 2020 yilda esa 370 million bola bu imkoniyatdan mahrum boʻldi va dunyoda ocharchilik xavfi yana-da oshdi.

Ta'limning barcha yoʻnalishida ham masofaviy shaklni qoʻllab boʻlmaydi. Masalan, tibbiyot yoʻnalishida masofaviy shaklda sifatli ta'lim berib boʻlmaydi. Yoki laboratoriyalarda bevosita amaliyot bilan oʻrganiladigan sohalar uchun ham bu usul maqbul emas. Shuningdek, nogironligi bor shaxslar uchun ham an'anaviy ta'lim afzal sanaladi. Birinchidan, bu ularga eng kerakli vositani-muloqotni taqdim etadi. Ikkinchidan, nogironligi bor oʻquvchi va talabalar sifatli ta'lim olishi uchun moddiy-texnik baza juda qimmat.

Ta'lim sifatining tushib ketishi kelajakda ogʻir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham ta'sir koʻrsatadi. Masalan, Jahon banki 2020 yil avgustda pandemiya davridagi ta'lim sifatining pasayishi ortidan kelajakda Markaziy Osiyo 44 milliard dollar zarar koʻrishi mumkinligini ma'lum qilgan edi. Bu ta'lim sohasiga avvalgidan-da kuchliroq e'tibor berishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Khudoyberdievna, S. Z. (2020). Impact of the Covid-19 pandemic on education system and the importance of online teaching. International journal of discourse on innovation, integration and education, 1(5), 58-60.
2. Саидова, З. Х. (2016). Использование новых технологий на уроках английского языка. Молодой ученый, (7), 703-706.
3. Saidova, Z. (2022). СТРУКТУРНО-ГРАММАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПСИХИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ И ЛИЧНОСТНЫХ СВОЙСТВ КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ЗОНА ФРАЗЕОЛОГИЗМ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8(8).
4. Saidova, Z. (2021). Advantages and disadvantages of modular object-oriented dynamic learning environment (moodle) in the system of education. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8).http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4352.
5. http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1024. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). The main features of translation of phraseology from english into uzbek. Scientific Impulse, 1(3), 523-526.
6. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Psychological bases 0f the development moral and aethetic outlook of future vocational teachers // Научный журнал. 2017. №3 (16). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psychological-bases-0f-the-development-moral-and-aethetic-outlook-of-future-vocational-teachers.
7. Khudoyberdievna, S. Z. (2021). Analysis of the concepts of emotions in Russian and English phraseological picture of the world. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2, 11-18.
8. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Teaching English through games // Научный журнал. 2017. №3 (16). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/teaching-english-through-games.
9. Khudoyberdievna, S. Z. (1871). THE STUDY OF PHRASEOLOGY AND COMPARATIVE ANALYSIS OF PHRASEOLOGISMS REFLECTING THE SPIRITUAL STATE OF HUMAN. International Engineering Journal For Research & Development, 6, 222-225.
10. Khudoyberdievna, S. Z. (2021). Language Expressing Psychoemotional State of Human. In International conference on multidisciplinary research and innovative technologies (Vol. 2, pp. 108-113).
11. Khudoyberdievna, S. Z. (2021). Phraseologization as Cognitive Process. International Journal of Culture and Modernity, 1, 22-26.
12. Saidova , Z. . (2023). PRACTICAL ASSIMILATION OF DIGITAL TOOLS AND MATERIALS BY TEACHERS AND STUDENTS IN MODERN EDUCATION. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(1 Part 1), 51–55. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/8533.